QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI	777
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	784
Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHİYATI	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA)	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXAСТИK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNINI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voiti o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQUISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdamiyovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI

Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrası stajyor o'qituvchisi

shodibek.tokhirov95@gmail.com

ORCID: 0009-0007-7200-4181

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning O'zbekistonda shakllanishi va rivojlanish jarayoni, xususan elektron savdo va to'lov tizimlarining kengayishi tahlil qilinadi. Maqolada davlat siyosati, raqamli infratuzilma, fintex kompaniyalari va onlayn xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, elektron savdo, elektron to'lovlar, fintech, raqamli infratuzilma, O'zbekiston, onlayn xizmatlar.

Abstract. This article explores the development of the digital economy in Uzbekistan, with a focus on the expansion of e-commerce and electronic payment systems. It highlights government policies, digital infrastructure, fintech companies, and the efficiency of online services. The paper also discusses existing challenges and future prospects.

Key words: digital economy, e-commerce, electronic payments, fintech, digital infrastructure, Uzbekistan, online services.

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование и развитие цифровой экономики в Узбекистане, особенно расширение электронной торговли и платёжных систем. Освещаются государственная политика, цифровая инфраструктура, деятельность финтех-компаний и эффективность онлайн-сервисов. Также обсуждаются существующие проблемы и перспективные направления.

Ключевые слова: цифровая экономика, электронная торговля, электронные платежи, финтех, цифровая инфраструктура, Узбекистан, онлайн-сервисы.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global iqtisodiy tizimning shakllanishiga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot nafaqat texnologik taraqqiyotning, balki mamlakatlarning iqtisodiy raqobatbardoshligi, innovatsion salohiyati va barqaror rivojlanish darajasining ham muhim ko'rsatkichiga aylangan. An'anaviy iqtisodiy model o'rnini elektron savdo, raqamli to'lov tizimlari, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, blokcheyn va boshqa ilg'or raqamli yechimlar egallamoqda. Bu esa ishlab chiqarishdan tortib, iste'molgacha bo'lgan barcha bosqichlarda samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, yangi qiymat zanjirlarini yaratish imkonini bermiqda.

Raqamli iqtisodiyotning eng faol segmentlaridan biri – bu elektron savdo va elektron to'lov tizimlaridir. Elektron savdo mahsulot va xizmatlarni internet orqali sotish va sotib olishning qulay, tezkor va ishonchli mexanizmini taqdim etsa, elektron to'lov tizimlari ushbu jarayonning moliyaviy poydevorini tashkil etadi. Jahon tajribasida bu sohalarning o'sishi iqtisodiy faollikni oshirish, iste'molchilarning imkoniyatlarini kengaytirish va norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish kabi ijobiy natijalar bilan baholanmoqda.



O'zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmayapti. So'nggi yillarda mamlakatda raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron hukumat tizimlari, mobil ilovalar, onlayn xizmatlar va to'lov platformalari joriy qilinmoqda. Fintech sohasida yangi kompaniyalar paydo bo'lib, innovatsion yechimlar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligi oshib borayotgani va internet xizmatlarining kengayib borayotgani bu yo'nalishdagi o'sishni tezlashtirmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va ayniqsa, elektron savdo hamda to'lov tizimlarining holati, ularning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg'or xalqaro tajriba bilan solishtirish asosida takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot hozirgi kunda iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biriga aylangan. Bu borada ilmiy va amaliy adabiyotlarning ko'lamini yil sayin kengayib bormoqda. O'zbekiston misolida elektron savdo va to'lov tizimlarining rivojlanishini o'rganishda, quyidagi asosiy adabiyotlar muhim axborot va nazariy tahlil manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunda Raqamli O'zbekiston – 2030" strategik dasturi kata o'rin egallaydi. Bu hujjat O'zbekiston raqamli transformatsiyasining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Jumladan, elektron hukumat, raqamli savdo, to'lov tizimlari va texnologik infratuzilmani rivojlantirish rejalari yoritilgan. Strategiya doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar maqolada amaliy misol sifatida keltirilishi mumkin. Ayniqsa, hududlarda internet tarmog'i infratuzilmasini yaxshilash, davlat xizmatlarini raqamlashtirish kabi yo'nalishlar elektron to'lov tizimlari uchun zamin yaratmoqda.

Elektron tijorat to'g'risidagi qonun (2021-yilgi tahrir) ham kata o'rin egallaydi. Elektron shartnomalar, iste'molchi huquqlari, transchegaraviy savdo, raqamli imzo kabi tushunchalar huquqiy asosda belgilangan. Bu qonun elektron savdoning rivojlanishini rasmiylashtiruvchi muhim huquqiy asosdir.

Elektron pul (elektron pul) - bu kompyuterlashtirilgan qurilmada ayirboshlash vositasining raqamli do'koni. Elektron puldan bank hisobvaraqlari bilan yoki ularsiz to'lov operatsiyalari uchun foydalanish mumkin. Albatta, katta afzallik - bu har qanday hajmdagi pul o'tkazmalarini tez va oson amalga oshiradigan naqd pulsiz to'lov tizimi. Bugungi kunda raqamli yoki elektron vositalar orqali pul yuborish yoki boshqarish nafas olish kabi tabiiy ko'rinadi. Pulni ko'chirish uchun faqat tugmani bosish yoki teginish kerak bo'ladi. Raqamli to'lovlar qiymati (masalan, pul) bir hisobdan ikkinchisiga elektron tarzda o'tkaziladigan har qanday operatsiyani o'z ichiga oladi. Naqd pul bilan amalga oshiriladigan an'anaviy to'lovlardan farqli o'laroq, raqamli pul o'tkazmalari nomoddiydir. Elektron to'lovlar vositasida pul majburiyatlari ijrosi ta'minlanadi. Taraflarning pul majburiyati bo'yicha pul mablag'larini o'z muddatida elektron to'lovlar asosida o'tkazib berilishi iqtisodiy munosabatlarda debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarni oldini olinishiga xizmat qiladi.¹

O'zbekiston Markaziy banki mamlakatdagi to'lov tizimlari — interbank, kliring tizimlari, masofaviy bank xizmatlari —ni nazorat qiladi. Shuningdek, "Humo" milliy protsessing markazi va karta tizimi ichki to'lovlar infratuzilmasining ajralmas qismi hisoblanadi. To'lov xizmatlarini ko'rsatish faqat Markaziy bankdan ruxsat (litsenziya) olingan taqdirda amalga oshiriladi. Bu tartib raqamli moliya xizmatlarida ishonchlilik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi elektron pul aylanishining iqtisodiyotga ta'siri, raqamli to'lovni joriy etishning iqtisodiy samarasi hamda rivojlanishi, raqamli to'lovdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari, raqamli to'lovning zamonaviy iqtisodiy tizimidagi ahamiyatini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirish va shakllantirish yo'nalishlarini aniqlashdir. mavzuni ilmiy o'rganish va tahlil jarayonida, statik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi. Elektron hukumatga doir elementlarni tatbiq etish va raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash O'zbekistonning yaqin istiqboldagi taraqqiyot rejasidan

¹ Uzakov UtKir Abdusattorovich. Raqamli to'lovlar va elektron pul aylanishi.



mustahkam o'rin olgan. Bu, birinchi navbatda, elektron hujjat almashish ulushini yanada oshirish va davlat xizmatlarining muayyan qismini Davlat xizmatlari markazlari orqali bosqichma-bosqich ravishda elektron shaklga o'tkazish vazifalariga tegishlidir. Telekommunikatsiya infratuzilmasi bu jarayonda muhim vazifani bajaradi. «Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi.²

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xizmati ma'lumotlariga ko'ra, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishida va muammoin hal qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Internet tarmog'iga ulanishning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati 1 200 Gbit/s ni tashkil etib, kommutatsiya markazi orqali 750 Gbit/s tezlikda Internet tarmog'iga chiqish imkoniyati yaratildi va tarmoqning yuklanish darajasi 76,6 foizni tashkil etmoqda. Raqamli biznes bu – jismoniy va raqamli dunyolarni birlashtiradigan yangi biznes-modellar paydo bo'lishidir. G'arbda School of Management raqamli o'zgarishni —Korxonalar qiymati va unumdorligini tubdan oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish" sifatida ta'riflaydi. Prezident Sh.Mirziyov ta'kidlaganidek, — Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi³. Ayni paytda Click, Payme, M-bank, Upay, Oson va boshqa onlayn to'lovlarga imkon beruvchi to'lov tizimlari mavjud bo'lishiga qaramay mobil to'lovlar, internet, kommunal to'lovlar uchun onlayn to'lovlarni amalga oshirish ko'rsatkichi yuqori emas. O'tgan davr misolida aytsek, 2017 yilda 34 foiz hisob egalari raqamli to'lovni amalga oshirgan. Solishtirish uchun bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 96 foizga teng. E'tiborlisi, terminal orqali to'lovlar son oshib bormoqda. Masalan, 2018 yilda terminal orqali to'lovlar 53 trillion so'mni tashkil etgan.⁴

So'nggi yillarda O'zbekistonda elektron savdo sektori jadal rivojlanmoqda. Davlat statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlariga ko'ra:

- 2020-yildan 2024-yilgacha elektron tijorat hajmi 4 barobar oshgan;
 - Faoliyat yuritayotgan yirik platformalar: Uzum Market, Asaxiy, Book.uz, hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali kichik tadbirkorlik subyektlari (mikrosavdogarlar);
 - Mahalliy savdo maydonchalari bilan bir qatorda, xalqaro platformalarning ham kirib kelishi kuzatilmoqda.
- Bunday o'sish raqamli texnologiyalar ommalashganining, internet tarmog'ining kengayganining va aholining onlayn xarid qilishga bo'lgan ishonchi ortganining dalilidir. Raqamli to'lov tizimlarining O'zbekistonda rivojlanish sur'atlari quyidagicha tahlil qilinmoqda:
- 2024-yil oxirida mobil to'lov ilovalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2,5 milliarddan oshgan;
 - O'zbekiston aholisi orasida eng keng tarqalgan to'lov tizimlari: Click, Payme, Apelsin, HUMO Pay;
 - Yangi bank xizmatlari (masalan, Uzum Bank) fintech modelida shakllanmoqda, an'anaviy bank xizmatlaridan ustunliklari – tezkorlik, qulay interfeys va minimal xizmat haqi.

Bu o'sish moliyaviy inklyuziya darajasining ortishiga, aholi va tadbirkorlik subyektlarining rasmiy moliyaviy xizmatlarga integratsiyalashuviga sabab bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida elektron savdo va to'lov tizimlarining rivojlanishi jadal sur'atlarda davom etmoqda. Mamlakatda internet infratuzilmasining kengayishi, mobil aloqa qamrovining ortib borishi, shuningdek, davlat tomonidan raqamlashtirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi tizimli chora-tadbirlar elektron iqtisodiy faoliyatning kengayishiga zamin yaratmoqda. So'nggi yillarda elektron to'lov xizmatlari, onlayn savdo platformalari, raqamli bank xizmatlari va FinTech yechimlari hayotimizning ajralmas qismiga aylana boshladi. Bu esa, o'z navbatida, naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish, savdo jarayonlarini soddalashtirish va iqtisodiy shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlarga qaramay, elektron savdo va to'lov tizimlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, aholi o'rtasida raqamli savodxonlikning pastligi, elektron tijorat sohasidagi huquqiy me'yorlarning to'liq shakllanmaganligi va axborot xavfsizligiga doir tahdidlar tizimning samarali faoliyat ko'rsatishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mavjud muammolarning ildiziga e'tibor qaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

² Yo'ldoshev Abduhakim. O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISH TENDENSIYASI

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018 yilning 2-iyulida «O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3832 son qarori

⁴ Muslimov Otabek Olimovich. HOZIRGI KUNDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA ELEKTRON TIJORATNING O'RNI



Kelgusida O'zbekistonda elektron savdo va to'lov tizimlarini yanada rivojlantirish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, internet va mobil aloqaning sifati va qamrovini yaxshilash orqali barcha hududlarda teng raqamli imkoniyatlarni yaratish lozim. Shuningdek, fuqarolar, ayniqsa yoshlar va tadbirkorlar o'rtasida raqamli va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha kompleks o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish zarur. Elektron to'lov tizimlarining ishonchligini ta'minlash maqsadida axborot xavfsizligi mexanizmlarini kuchaytirish va bu borada ilg'or texnologiyalarni joriy etish lozim. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotga oid qonunchilikni xalqaro tajriba asosida takomillashtirish, shuningdek, mahalliy FinTech startaplarini moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash ham sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, elektron savdo va to'lov tizimlari O'zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy raqamli modelga o'tishida muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu sohadagi islohotlarning izchil davom ettirilishi nafaqat milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshiradi, balki aholining turmush darajasini yaxshilash, qulay va shaffof iqtisodiy muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni. 2020-yil 5-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli Qarori. 2018-yil 29-mart.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti – <https://www.cbu.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018 yilning 2-iyulida «O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3832 son qarori
5. Muslimov Otabek Olimovich. HOZIRGI KUNDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA ELEKTRON TIJORATNING O'RNI
6. Yo'ldoshev Abduhakim. O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISH TENDENSIYASI



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>